



UILLIAM FOLKNERNING “A ROSE FOR EMILY” ASARIDA
QALB TUSHUNCHASINING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

Usmonova Zarina Habibovna

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Email: z.h.usmonova@buxdu.uz

Shuhratbek Shuhratov Shoxmat o'g'li

Lingvistika(ingliz tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Email: shuhratbekshuhratov007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi Uilliam Folknerning “A Rose for Emily” asaridagi qalb tushunchasining lingvokognitiv tahlili ko'rib chiqiladi. Bu tadqiqotda badiiy matnda qalb konseptining tilning vositalari orqali ifoda qilinishi, uning qahramonlar ruhiy holatlari va ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'liq bo'lgan holatlari ko'rib chiqiladi. Emily Grierson obraziga tegishli bo'lgan qalb tushunchasining kognitiv va semantic xususiyatlari o'rganiladi. Asardagi metafora va ramzlarga doir tasvirlar yordamida qalb konseptining mazmunini qatlamlariga alohida nazar solinadi.


Kalit so'zlar: lingvokognitiv tahlil, qalb tushunchasi, konsept, badiiy matnlar, William Faulkner, “A Rose for Emily”.

Abstract: This research mainly concentrates on a linguocognitive analysis of the concept of heart/soul in William Faulkner's short story “A Rose for Emily.” The study of this research explores the way the concept of the soul is demonstrated and expressed through the means of linguistics in the literary written text and how it is based on psychological state of protagonist and the social conditions. According to the character of Emily Grierson, the semantic and cognitive features of the concept are clearly depicted. Metaphorical and symbolic descriptions are studied to define the conceptual positions and layers of the soul in the story.

Keywords: linguocognitive analysis, the concept of soul, concept, literary text, William Faulkner, “A Rose for Emily”.

Kirish: Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnlarni faqat Grammatik va stiistik jihatlardan emas, balki insonning tafakkur layoqiyati va madaniy tajribasi bilan bog'langan holda o'rganish muhim o'rin kasb etadi³. Shu boisdan, lingvokognitiv yondashuv uslubi badiiy asarlarda ma'lum va muayyan tushunchalarning shakllanishi va ularning ifodalanish jarayonida faol til vositalarining ifoda maqsadlarini o'rganish imkoniyatini beradi. Ushbu tadqiqotda “A Rose for Emily” asaridagi qalb bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni lingvokognitiv nuqtayi nazari tomondan o'rganib tahlil qilibgina qolmasdan, uning semantic va kognitiv va ramziy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

³ Evens, V., Green, M. *Cognitive linguistics: An Introduction*. Edinburg University Press, 2006.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Zamonaviy lingvokognitiv tilshunoslikda har bir fikrlarning va konseptlarni o'rganish va tahlil qilish insonning fikrlash jarayonini oshiradi va tafakkur va til o'rtasidagi bevosita bog'liqlikning yaxshilanishida xizmat qiladi. Lakoff va Johnson konseptual metafora nazariyasida ma'lum abstract tushunchalar inson ongida metaforalar orqali shakllanishi takidlanadi. Ushbu tamoyillar orqali badiiy matnlarda yashirin tarzda ifodalangan tushunchalarni tahlil qilishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Uilliam Folknerning "A Rose for Emily" asarida qalb tushunchasining lingvokognitiv xususiyatlari Lakoff va Johnsonning konseptual metaforalarga bog'liq bo'lgan nazariyalari asosida o'rganib chiqiladi.

Lakoff va Johnson nazariyasiga asosan, inson abstrakt tushunchalarni aniq ko'rsatilgan obrazlar yordamida anglaydi. Ushbu yondashuv "A Rose for Emily" asarida qalb tushunchasini tahlil qilishda muhim rol kasb etadi. Ushbu asarda bevosita nomlangan qalb tushunchasi bo'lsa-da, u ramziy va metaforik birliklar yordamida ifoda qilinadi. Emily Grierson obrazi yordamida qalb tushunchasi individual psixologik holat bilan bog'liq hisoblanadi. Misol uchun, Emily yashayotgan uy uning qalbining metaforik ramzi sifatida qabul qilinadi. Uy-yopiq, eskirgan va tashqi o'rab turgan olamdan butunlay farqli holda ajralib qolgan holda tasvirlanadi va bu holatda qalbning ijtimoiy izolyatsiyasi ifodalanadi⁴.

Evens va Green aytib o'tganidek, kognitiv model til birliklari orqali shakllanish xususiyatiga egadir. Asardagi hid motivi qalbdagi ichki inqirozni va inkor qilingan haqiqat hislarini bildirib kelish vazifasini bajaradi⁵. Bu aytib o'tilgan ramzlar qalb tushunchasining kognitiv qatlamlarini ko'rsatib keladi.

Mazkur tadqiqotda "A Rose for Emily" asarida Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi hamda Evenslarning lingvokognitiv qarashlariga asoslangan holda tahlil qilinadi. Shu boisdan, qalb tushunchasining ramziy va kognitiv modeli badiiy matnda o'rganiladigan holatga keltiriladi.

Lingvokognitiv tahlil nuqtayi nazarga asoslanadigan bo'lsak, qalb tushunchasi insonning ichki ruhiy holati, his qilingan kechinmalari va ongiy tajribalarini bildirib keluvchi asosiy konseptlardan biri sifatida qaraladi. Uilliam Folknerning "A Rose for Emily" asarida qalb birigi to'g'ridan-to'g'ri leksik tushuncha sifatida ko'p hollarda uchramaydi, lekin u badiiy tasvirlar, ramziy ifodalarda va metaforik birliklarda chuqur kognitiv mazmun orqali ifoda qilinadi.

Asarda qalb tushunchasining asosiy kognitiv belgilaridan biri bu uning yolgizlikka yaqinligidir. Emily Griersonning ijtimoiy muhitdan va o'z hayotida uni qamrab turgan voqealardan ajralib qolishi uning qalbidagi ajralish holatini va konseptini shakllantiradi. Ushbu holatda "qalb" tushunchasi "yopiq makon" birikmasiga teng ekanligi ko'rsatiladi va kognitiv modeli orqali namoyon qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Biz Emily

⁴ Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.

⁵ Evens, M., Green, M. *Cognitive linguistics: An Introduction*. Edinburg University Press, 2006.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yashaydigan uy haqida ham alohida gapirib o'tishimiz mumkin, va bu uy tashqi dunyodan ajralgan, eski holga kelib qolgan tashlandiq uy sifatida tasvirlab beriladi. Bu obraz va tasvirlash orqali, uning qalbini metaforik modeli sifatida talqin qilinadi. Yana bir muhim kognitiv belgi shundaki, vaqt bilan bog'liq bo'lgan tushuncha ham buzulish holati kuzatiladi. Emily otasining o'limini tan olmasligi va Homer Barron bilan bo'lgan munosabatlaridagi noodatiy xatti-harakatlari uning qalbida o'tmish va hozirgi zamondagi zamonlar aro chegaralar va munosabatlardagi ayrim yo'qotishlarni ko'rsatib beradi. Bu holatda "qalb" tushunchasi "muzlatilgan vaqt" kognitiv metaforasi yordamida tasvirlab beriladi⁶.

Asardagi hid motivi qalb tushunchasining ichki inqirozini ko'rsatib ifodalab keluvchi muhim kognitiv belgi sifatida qabul qilinadi. Hid qahramon qalbida yashirin holda kelib, inkor qilingan haqiqatning yaqqol belgisi sifatida ko'zga tashlanadi va namoyon bo'ladi. Bu holatda "qalb" tushunchasi "yashirilgan sir" birligiga, ya'ni modeliga tenglashtirilgan holda tasvirlanadi. Lingvokognitiv jihatdan qaralganda, hid birligi abstrakt ruhiy holat bo'lib, sezgi orqali anglay olish imkoniyatini taqdim qiladi.

Shuningdek, Emily Griersonning jamiyat bilan munosabatlari qalb tushunchasining qarshilik va inkorlik belgilarini ko'rsatib beradi. U soliq to'lashdan bosh tortgan holda inkor qilgan holati va ijtimoiy holatlarga va qoidalarga bo'ysunmasligi orqali qalbning ijtimoiy me'yorlarga qarshi yopiq holatini ifodalaydi. Bu holatda "qalb" tushunchasi "mustahkam devor" birligiga teng kognitiv metafora bilan ochib tasvirlab beriladi. Homer Barron esa qalb tushunchasida sevgi va bog'liqlik ehtiyojini namoyon qiladi. Emily qalbida ijtimoiy rad etishdan qo'rquv kuchli bo'lgani sababli, u sevgini yo'qotmaslik maqsadida uni o'lim yordamida "saqlab qolishga" harakat qiladi. Bu esa qalb tushunchasining yuqori darajaga yetganini namoyon qiladi⁷.

Asarda Emily Grierson yashab turgan uy doimiy ravishda yopiq, qorong'u, chang bosgan holatda tasvirlanadi. Closed, dark, dusty, decaying kabi leksik birliklarning faqatgina makonigina emas, balki qahramonning ichki holatini va kechinmalarini ifodalab beradi. Lingvokognitiv tomondan bu holat makon orqali qalbni aniqlash modelini namoyon qiladi. Bu holatda uyning tashqi olamdan va dunyodan uzilganligini Emily qalbning ijtimoiy ajralish holatini ko'rsatib berishi orqali aks ettirgan holatlari orqali namoyish bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Emily obraziga xos xususiyatlardan biri shundaki, Emilyda kamgaplik va sukunatga botganligidir. Asarda silence va stillness tushunchalari qaytarilgan holda takrorlanganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Sukunat lingvokognitiv tahlilda tashqi nutqning mavjud emasligida emas, balki ichki ruhiy bosimning va og'irlikning belgisi sifatida qaraladi. Emily singari ijtimoiy muloqotdan chetlashgan, ichki monolog bilan chegaralangan holatda ko'rsatib beriladi. Va bu holatda "qalb" tushunchasi "ichki

⁶ Faulkner, W. *A Rose for Emily*. New York: Modern Library, 1930.

⁷ Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'shliq" modelini yuzaga keltiradi, qahramonning ruhiy holati yolg'izlikka yaqin ekanligini yanada chuqurroq qilib tasvirlab beradi.

Homer Barron bilan bo'lgan munosabatda Emily qalbida sevgi ehtiyoji bilan yo'qotishga nisbatan qo'rquvining to'qnashuvini namoyon qiladi. Emily uchun sevgi tushunchasi ijtimoiy faoliyatning aloqa vositasini tiklash imkoniyati, ammo shu bilan bir qatorda qalb uchun xavf soluvchi manbai sifatida ham qabul qilinadi. Shu boisdan Emily sevgini harakat orqali muzlatib qo'yadi. Lingvokognitiv tomondan olib qaralganda bu holat qalb tushunchasining eng yuqori darajasini ifoda qilib ko'rsatadi, va "qalb" tushunchasi "nazorat ostidagi object" modelini yaratib ko'rsatadi.⁸

Asarda Emily jamiyat yaratgan qoidalarga bo'ysunmaslik holatlari kuzatiladi. Bu holatlar Emily soliq to'lashdan bosh tortishi holatlari, yopiq hayot kechirishga bo'lgan yondashuvlari orqali bilib olishimiz mumkin va bu holatlar orqali qalb tushunchasining ijtimoiy bosimga qarshi himoyaviy holatni namoyon qiladi. Qalb jamiyat bilan ochiq muloqot tashkillashtirishga qaraganda, qarshilik munosabatini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqotda William Faulknerning "A Rose for Emily" asarida qalb tushunchasi lingvokognitiv nuqtayi nazardan kelib chiqib tahlil qilinganda, qalb konsepti turli xil ramziy obrazlar, metaforalar va qahramonlarning ruhiy holatlari orqali ochib beriladi. Emily Griersonning yolg'izlik, o'tmishga nisbatan tobelik hissi va iltimoij holatlarga nisbatan qarshilik kabi kognitiv modellarni namoyondalariga guvoh bo'lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Evens, V., Green, M. *Cognitive linguistics: An Introduction*. Edinburg University Press, 2006.
2. Faulkner, W. *A Rose for Emily*. New York: Modern Library, 1930.
3. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Rakhmatova, M. (2016). DISCUSSION ON VALUES, CULTURE, AND LANGUAGES. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 2, No. 11, pp. 40-42). ROST. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27198684>
5. Habibovna, U. Z. (2023). Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("The Martian Chronicles") Asari Tarjimasida Leksik Xususiyatlar. *Miasto Przyszłości*, 32, 354–357.
6. Usmonova, Z., & Quvvatova, D. (2021). The features of artistic functions in scientific fantasy (using the example of Ray Bradbury and Isaac Asimov's works). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.

⁸ Evens, V., Green, M. *Cognitive linguistics: An Introduction*. Edinburg University Press, 2006.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

7. Usmonova, Z., & Nurulloyevna, I. U. (2024). THE LIGUISTIC ANALYSIS OF TERMINOLOGY RELATED TO CRAFTS IN THE STORY OF “A ROSE FOR EMILY” BY WILLIAM FAULKNER. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(46), 99-102.

8. Habibovna, U. Z. (2022). The Implementing Author’s Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the “I Robot” By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin, 7, 63-65.

9. Naimova, A. M., & Baxronova, B. D. (2025). THE PECULIAR FEATURES OF MYTH MAKING TOOL IN PROSE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(35), 66-69.

10. Djalilova, Z. (2022). СИМВОЛИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ ФИТОНИМОВ В ПОЭЗИИ М.ДРАЙТЕНА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4623

